

EFFECTIVE TREATMENT AND PREVENTION OF MASTITIS IN DAIRY COWS

Mengliev G'ayrat Akramovich,

Associate Professor,

Tashkent Branch of Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Qo'ziboyeva O'g'ilbu Imomali qizi

Doctoral Student

Tashkent Branch of Samarkand Institute of Veterinary Medicine

SUMMARY

Mastitis is now very common on farms and has a negative impact on the milk yield of dairy cows. The economic damage is calculated on a per capita basis, causing significant damage to farms. Effective methods of prevention and treatment could have prevented the economic damage caused to farms by the disease.

Keywords: mastitis, catarrhal, ration, zoogenic requirements, milk.

АННОТАЦИЯ

Мастит в настоящее время очень распространен на фермах и оказывает негативное влияние на надои молочных коров. Экономический ущерб исчисляется в расчете на душу населения, нанося значительный ущерб фермерским хозяйствам. Эффективные методы профилактики и лечения могли бы предотвратить экономический ущерб, причиняемый хозяйствам болезнью.

Kalit So'Zlar: mastit, kataral, ratsion, zoogigenik talablar, sut.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Veterinariya fani va amaliyoti oldiga - shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo'jaliklariga qarashli chorva mollarining kasalliklariga qarshi kurashish va davolashning hamda hayvonlar mahsuldarligi va reproduktiv xususiyatlarini yaxshilashning samarali va kamchiqim usullarini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish orqali mahsulotlar tannarxini kamaytirishga erishishdek dolzarb vazifalar qo'yiladi. Mastit hozirgi paytda chorvachilikda sigirlar orasida ko'p tarqalgan kasalliklardan hisoblanib, Olinadigan umumiyl sut miqdori 15-20% va uning yog'lilik darajasi 0,8-1% gacha kamayishi, yuqori mahsuldar hayvonlarni xo'jalikda foydalanish muddati 6-8 yoshgacha qisqarishi, sutning sanitariya sifatini pasayishi, ya'ni bunday sutdan tayyorlanadigan sut mahsulotlari sifatsiz bo'lishi kasallangan sigirlarni qisir qolishi tufayli chorvachilikga katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda.

Adabiyot ma'lumotlarining tahlili va shaxsiy kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklarida sigirlar orasida mastitlarning keng tarqalganligiga qaramasdan, bu kasallikning sabablari, barvaqt diagnostika qilish, samarali davolash va guruhi usulida profilaktika qilish chora-tadbirlari to'liq ishlab chiqilmagan.

MAVZUNING MAQSADI VA VAZIFALAR

Respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklari sharoitida sigirlarda mastit kasalligining etiologiyasi, kechish xususiyatlari, samarali davolash usullari hamda oldini olish chora-tadbirlarini o'rganish maqsadida quyidagi muammolarni o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik:

- Sut yo'nalishidagi qoramolchilik fermer xo'jaliklari sharoitida sigirlarda masttlarning tarqalishi, asosiy turlari hamda ularning xo'jaliklarga keltiradigan iqtisodiy zararini o'rganish;
- sigirlarda masttlarning sabablari, rivojlanish xususiyatlari, kasalliklarning simptom va sindromlari, qondagi morfobiokimyoviy o'zgarishlarni o'rganish;
- sigirlarda masttlarni davolash usullarini takomillashtirish va oldini olishga qaratilgan guruhli profilaktik tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyatga tadbiq etish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyot ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki sog'in sigirlar orasida mastitlar keng tarqalgan bo'lib, ayrim xo'jaliklarda kasallanish ko'rsatgichi 30-40% ga yetishiga qaramasdan qoramolchilik xo'jaliklarida, shu jumladan xususiy va fermer xo'jaliklari sharoitida ushbu kasalliklarini davolash va oldini olish tadbirlari to'liq o'rganilmagan.

Sigirlarda yelinni yallig'lanishi ko'pincha subklinik mastit shaklida kechadi. U sigirlarda sog'im davrida 21,4%, suttan chiqarishga yaqin 24,6%, suttan chiqarilgan davrda 28,9% va yangi tuqqan davrda 23,4% sigirlarda uchraydi. Bu davrlarda klinik nomoyon bo'ladigan mastit 4,6-6,2% sigirlarda uchragan.

Mastit bilan har yili o'rtacha 20-30 dan 50-70% gacha sigirlar kasallanib, ulardan mahsuldorligi 15-25% gacha kamayadi. Jarohatlangan Yelin bo'lagidan olingan sut tarkibida somatik xujayralar (SX), oqsil, xloridlar, ishqorlar miqdori ko'payib, zichligi, mikrofloralar bilan ifloslanishi ortadi va tarkibidagi yog', laktozalar, quruq modda miqdori kamayadi hamda bakterisid faolligi pasayadi. Bunday sut oziqaviy qimmatini va sut mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan texnologik xususiyatlarini yo'qotadi.

-Sigirlarda suttan chiqarilgan va laktasiya davrida sut bezlari funksional holatini baholashning asosiy me'zoni sut tarkibidagi somatik xujayralar miqdori hisoblanadi. Laktasiya davrida bu xujayralarning miqdori $287,3+16,7$ ming/ml, sut berishning oxiriga kelib, ya'ni oxirgi marta sog'ilgan sut tarkibida $664,0+22,3$ ming/ml atrofida bo'ladi. Suttan chiqarishning 3- kunida sut tarkibidagi somatik xujayralar 1,91 marta, 5- kunida 2,68, 10-kunida - 3,33, 20- kunida 4,32, 30-kunida sut bezi sekreti tarkibidagi somatik xujayralarni 5,35 martaga ko'payishi qayd etilib, o'rtacha $3554,0+50,0$ ming/ml ga etgan.

-Sigirlar Ratsioniga mikroelementlar va vitamindan iborat mineral premiksni (1 t omixta yemga kg hisobida tarkibi: temir sitrat – 1,0, 0,6 – mis sitrat, 3,0 – rux sitrat, 1,5 – marganes sitrat, 0,2 - kobalt sitrat, 0,25 – kaliy yodid, 0,02 – natriy selinit, 0,5 – E vitaminini, 2500 mln XB A vitaminini, 200 ming XB D vitaminini, 20,0 trikalsiyfosfat) kiritilishi hayvonlar organizmiga ijobjiy ta'sir etib, qonning ko'rsatkichlari va metabolizm jaryonlarini (oqsillar, uglevodlar, yog'lar, vitaminlar miqdori) yaxshilashi aniqlangan. Premiks sog'in sigirlarga 60 g dozada qo'llanilganda ular sut mahsuldorligini 4%, uning yog'lilagini 16,9% ga ortishi kuzatilgan.

TADQIQOTLAR OBEKTI VA PREDMETLARI

Toshkent viloyati Parkent tumani Bo'ston mahallasi "TALAT" hamda Toshkent viloyati Yangi yo'l tumani "JAMOL OTA" fermer xo'jaligi. Biz fermer xo'jaligiga borib o'rganganimizda 400 bosh sog'in sigir, 100 bosh tanadan iborat edi. Tug'riqqa yaqin qolgan sog'in sigirlarni alohida joy tashkil qilib umumiy podadan ajratib oldik. Sigirlarni ratsioni to'g'ri tashkil qilinmaganini ko'rib, tug'ishiga yaqin qolgan maxsuldar sog'in sigirlarni ratsionidan shirali oziqalarni chiqarib, o'rniqa quruq oziqalar berishni boshladik.

PATOGENETIK DAVOLASH USULLARI

Bu usullarning mohiyati hayvon organizmiga neyro-gumoral va endokrin tizimlar orqali nospetsefik moddalar va usullar bilan ta'sir etib, uning patogen agentlarga nisbatan chidamliligini oshirishdan iboratdir.

- Sut bezlari yallig'langanda nerv elementlarining qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanligining turli darajada buzilishi hamda limfa va gemodinamik o'zgarishlar sodir bo'ladi, natijada gipertoniya, giperosmiya, gistamin, asetilxolin, adenozin uch fosfat va adenil kislotasi, pepton, albumozlar, aminokislotalar va keton tanachalarining to'planishi kuzatiladi. Yelinda sodir bo'lgan o'zgarishlarni faqatgina antibakterial dori moddalarini qo'llash bilan yo'qotib bo'lmaydi. Bunga faqat nerv sistemasi bilan tomirlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliknii tiklash va ularning oziqlanishini me'yorlashtirish orqali erishiladi.
- Mastitlarni novokain bilan patogenetik davolash qaytarilmaydigan jarayonlar, ya'ni to'qimalarning yiringli yemirilishi, nekrozi, gangrenasi, atrofiyasi va yelin induratsiyasi sodir bo'lмагандагина samara beradi.
- Novokainli blokada usuli bilan davolash samarasi sut bezlari nerv tolalariga novokainning kuchsiz eritmasini neyrotrop va antiparabiotik ta'siri natijasida sodir bo'ladi.
- Yelining jarohatlangan so'rg'ichlari orqali Mastisan – A, Mastisan – B, Mastisan 5-10 ml, har 24 soatda 4-5 kun davomida, sutni 3 sutkadan keyin ishlatish mumkin. Bu preparatlar sog'in sigirlarda har 12 soatda, sutdan chiqarilgan davrda har 24 soatda 1 marta 4-5 kun davomida, Mastitsid – 15 ml har 12 soatda bir marta, 4-5 kun davomida qo'llaniladi. Penersin – klinik mastitlarda 10 ml, har 12 soatda bir marta, 3-4 kun, subklinik mastitda har 24 soatda 3 kun davomida.
- Mastitning ayrim turlari (yiringli-kataral, fibrinli, gemoragik) kasal hayvonda tana haroratining ko'tarilishi, ishtahaning pasayishi, tashqi ta'sirotlarga befarqlik kuzatiladi, Shuning uchun 100-150 ml 10%-li kalsiy xlorid eritmasiga 2-3 g kofein aralashtirilib, 150-200 ml 20%-li glyukoza eritmasiga askorbin kislotasi va kofein aralashtirilib, vena qon tomiriga yuboriladi.

Tekshirish obekti: sifatida laktatsiyaning turli davrlaridagi sigirlar olinib, «O'xshash juftliklar» tamoyili (I.P. Kondraxin 1980) asosida «etalon» guruhlarga ajratildi. Sigirlarda mastitga erta diagnoz qo'yish maqsadida akusher-ginekologik dispanserlash o'tkazilib, sigirlarning mastit bilan kasallanish darajasi aniqlandi.

Mastit bilan kasallangan sigirlar gematologik ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Kataral-yiringli mastit bilan kasallangan sigirlar	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Gemoglobin	g/l	108±0,27	113±0,29
Eritrositlar	10 ¹² /l	6,72±0,36	8,26±1,34
Leykositlar	10 ⁹ /l	6,76±0,12	10,56±0,14
Eozinofillar	%	4,8±0,5	2,3±0,6
Limfositlar	%	63,0±2,5	40,6±0,26
Monositlar	%	2,5±0,27	2,3±0,3
Tayoqchayadroli neytrofillar	%	2,0±1,3	8,4±2,3
Segmentyadroli neytrofillar	%	27,1±1,3	44,8±1,4
Yosh neytrofillar	%	0	1,1±0,5
Umumiy oqsil	g/l	60,8±0,8	76,5±0,09

Tajriba va nazorat guruhidagi sigirlar qonining ayrim morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari tajribalarni boshlashdan oldin bir xil ko'rsatkichlar bilan xarakterlangan bo'lsa, nazorat guruhidagi sigirlarda bu ko'rsatkichlarning tajribalar oxirigacha yomonlashib borishi qayd etildi.

XULOSA

Sog'in sigirlarning mastit bilan kasallanishida ularni saqlash sharoitlari va sut sog'ish qoidalariga rioya etilmasligi, ratsionlarning takomillashmaganligi, ya'ni ratsionda oqsilli va shirali oziqalarning ortiqchaligi va yengil hazmlanuvchi uglevodlar hamda klitchatkaning yetishmasligi, suv-tuz almashinuvining buzilishi, sigirlar uchun faol yayratish va quyosh nurlarining yetishmasligi asosiy etiologik omillar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Eshbo'riev B.M., Veterinariya akusherligi, Toshkent. Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2018.
2. Eshbo'riev B.M., Eshbo'riev S.B., Djumanov S.M. Veterinariya akusherligi fanidan amaliylabarotoriya mashg'ulotlari. Samarand 2020.
3. Norboev Q.N. va b. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik, Toshkent, 2020.
4. Polyansev N.I., Podberezny V.V. Veterinarnoe akusherstvo i biotekhnika reproduksii jivotnykh: Rostov n/D: Feniks, 2001.
5. Студенцов А.Н., Шипилов В.С., Субботин Л.Г., Преображенский О.Н. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения, 7-ое изд. М.: "ВО Агропромиздат", 1999.
6. Субботин В.М., Субботина С.Г., Александров И.Д. "Современные лекарственные средства в ветеринарии". Феникс, Ростов-на-дону 2000.
7. Тетерев И. И., Тимошенко Т. А., Медведев С. П., Тетерев И. И. Биогел: Технические условия. ТУ 9358-002-10920471-96.
8. Чернова Е.Н. Обмен веществ и продуктивность лактирующих коров в зависимости от содержания в рационе цитратных форм микроэлементов. Автореф. дисс... канд. биол. наук. Белгород, 2011.

9. Чомаев А.М., Чернышева М.Н., Голдина А.А. Молочная продуктивность и сроки осеменения коров. *Ж.Зоотехния*, №6, 2003, с.30.
10. Чурсин А.В. Клинико-фармакологическая оценка эффективности комплексной терапии мастита у лактирующих коров. Автореф. дисс... канд. вет. наук. Воронеж, 2009.